

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

G.Sh.Rixsiyeva

2020 yil "28" 08



"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi

2020 yil "29" 08

Ro'yxatga olindi: № BD-5120100

2020 yil "29" 08

PEDAGOGIK MAHORAT
FAN DASTURI

Bilim sohalari:	100000	-Gumanitar soha
	200000	-Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohalari:	120000	-Gumanitar fanlar
	230000	-Iqtisod
	210000	-Sotsiologiya va psixologiya
Ta'lim yo'nalishlari:	5120100	- Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha);
	5120100	- Filologiya va tillarni o'qitish (mumtoz tillari bo'yicha);
	5120200	- Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo'yicha);
	5120300	- Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha);
	5120700	- Jahon siyosati (mintaqalar bo'yicha);
	5210800	- Sharq falsafasi va madaniyati;
	5231000	- Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha).

Toshkent – 2020

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "28" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "28" 08 dagi 452 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Shayusupova A.A.–TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dots. p.f.n.
Xaydarova R.A.–TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Zoxidova D.A. - TDSHI "Pedagogika va psixologiya" kafedrası katta o'qituvchisi, p.f.n.
Karimova G.K.– Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyasi" kafedrası v.b. dotsenti, PhD.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2020 yil "28" 08 dagi "1" – sonli bayonnoma).

16. Niyofov G. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. T.2011
17. Maxkamov U., Tilaboeva N., Tilaboeva Sh. Pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma.-T.:2003
18. Кан- Калик В. А. Учителю о педагогическом общении.- М., 2010.
19. Omonov X.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik 2009y.
20. Шаюсупова А.А., Хайдарова Р.А. Педагогическое мастерство: Учебно-методическое пособие.-Т.:ТашГУВ, 2020
21. Якушева С. Д. Основы педагогического мастерства. -М; Академия, 2009.

Internet saytlari:

22. www.ziynet.uz
23. www.tdpu.uz
24. www.pedagog.uz
25. www.psychology.uz
26. www.nutq.intal.uz

I.O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

“Pedagogik mahorat” o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining bakalavriatlar uchun Davlat ta'lim standartiga asoslanib tuzilgan. “Pedagogik mahorat” o'quv fani sifatida kasbiy-pedagogik tayyorgarligi tizimida etakchi o'rinni egallaydi. Hozirgi davrda “Pedagogik mahorat” fanini o'qitish bo'lg'usi o'qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha tafakkurni tarkib toptirish, o'qituvchi-tarbiyachi, yoshlar murabbiysi vazifalarini ijodiy bajarish, umumiy tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

“Pedagogik mahorat” fani pedagogik madaniyat, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, pedagogik xulq-atvor kabi mavzularni o'z ichiga olgan. Pedagogik mahoratdan har bir bo'lg'usi bakalavr, qaysi fan mutaxassisi bo'lib etishishidan qat'iy nazar o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy xajmini, o'qituvchi-murabbiyga xos umumiy kasbiy va shaxsiy fazilatlarini egallashlari lozim. Ayni paytda o'rta maxsus va kasb xunar ta'limi o'qituvchilarining o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. SHunga ko'ra har bir mutaxassis-o'qituvchi shaxsi o'ziga xos betakroridir va bu xolat o'z navbatida bakalavr-bo'lg'usi mutaxassisi pedagogikadan tayyorlash mazmuni, umumiy va o'ziga xos jihatlari va aloqadorligi o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

“Pedagogik mahorat” talabaniing umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bo'lajak mutaxassis pedagogik mahorat kursini o'rganish davomida boshqa psixologik pedagogik o'quv fanlari, pedagogik tushunchalar yuzasidan fikr yuritadi hamda ularning mohiyatini tushuna boradi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - bo'lg'usi bakalavrlarni hozirgi zamon pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish; O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar amalga oshirish sharoitida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ta'lim samaradorligini oshirish uchun ularda zarur ko'nikmalarni xosil qilish; bo'lg'usi mutaxassislarning pedagogik tafakkurini shakllantirish negizini yaratish; pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish; “Ta'limniing pedagogik qonuniyatlari xamda tamoyillari”ga mos xolda tegishli qarorlar qabul qilish.

Fanning vazifasi - komil insonni voyaga etkazishning bir butun xolatdagi muammolarini xal qilish; ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish sharoitida o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda ta'lim-tarbiya

samaradorligini tinmay oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondoshish; pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkab topshirish; qonun tamoyil, metod va usullarni ta'lim muassasalarining amaliy hayoti bilan bog'lab bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatish; xalq ta'limi, ta'lim muassasalarini boshqarish va rahbarlik qilish masalalarini chuqur o'rganib, bo'lajak mutaxassislar salohiyatini yuqori saviyada tayyorlash muammolarini hal qilish; rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim-tarbiya, ta'lim tizimlari hamda ta'limni boshqaruv jarayoniga doir eng ilg'or tajribalarni bo'lajak o'qituvchilarga chuqurroq o'rgatish va amaliyotda qo'llashni tashkil etish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Talaba:

“Pedagogik mahorat” fanini o'zlashtirgan bakalavr talaba quyidagilar bo'yicha nazariy va amaliy **tasavvurlarga ega bo'lmog'i lozim:**

ta'lim-tarbiya ishlarini mustaqillik g'oyalaridan foydalanilgan xolda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga uyg'un xolda o'tkazish;

pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin, o'rta davrni va istiqbolni ko'zlab maqsad, vazifalarni belgilash;

amaliyotda o'qitish xamda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini qo'llashni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

amaliyotda o'qitish va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo'llash, ma'lum vaziyatlarda ulardan to'g'ri foydalana olish;

dars va tarbiyaviy tadbirlarda o'quvchilarning jamoadagi faoliyati va muloqotini samarali boshqara olish;

ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, SHarq va g'arbning ilg'or pedagogik tajribalaridan foydalangan xolda tashkil etish;

o'quvchilar jamoasini o'z oldiga qo'ygan vazifalarni to'g'ri bajarilishini tashkil etish;

o'quvchilar faoliyati va hulgini rag'batlantirib borish;

pedagogik vaziyatlar, ta'lim va tarbiya natijalarini taxlil eta olish;

guruh rahbari va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, tashqi ta'lim, ota-onalar, mahalla, jamoatchilik bilan o'z-o'zini boshqarishni tashkil etishni **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. “Pedagogik mahorat” fanining nazariy asoslari hamda uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati

“O'qituvchi” atamasi, uning shaxsi hamda faoliyati haqida tushuncha. O'qituvchi faoliyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagogik bilimlar. Pedagogik zakovat.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan slayd va video matnlar tayyorlanadi, fundamental asarlarni taxlil etiladi, loyixa ishi, pedagogik keyslarni yechish va boshqa shakllarda tashkil qilinadi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari **Asosiy adabiyotlar**

1. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / U.M. Asqarova, M. Xayitboev, M.S. Nishonov, 2008. - 287 b
2. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi : (Bakalavriaturaning 140000 “O'qituvchilar tayyorlash” va “Pedagogika” fani soxasi yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma) / A. Zunnunov, 2006. - 164 b
3. Asqarova O'.M. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar.T., 2005
4. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar - Toshkent, «Fan»,-2001. O'quv qo'llanma.
5. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.T: 2003y. O'quv qo'llanma.
6. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебное пособие. 2005
7. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar / B. Farberman, 2000.-1465
8. Ibraximov X.I. Pedagogik texnologiya T.2009 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.–T: “O'zbekiston”, 2017.
10. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–T: “O'zbekiston”, 2016.- 56 b. (Мы все вместе построим свободное, демократическое и просвещающее государство Узбекистан).
11. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash–yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.: “O'zbekiston”, 2017. - 48 b. (Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития и благополучия народа)
12. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan quramiz.–T.: “O'zbekiston”, 2017.-488 b.
13. Батурина Г. И., Кузина Т. Ф. Введение в педагогическую профессию.–М., Академия,2009.
14. Воинов М.Г. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебник. Т., 2006
15. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari: O'quv qo'llanma.–T.: “Tib-Kitob”,2009.

3. Pedagogik nazokat – o'qituvchi axloqining ijodiy ko'rinishi.
4. Didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, bilish va anglash qobiliyatlari
5. Pedagog tomonidan ishontirish va ta'sir etish usullaridan foydalanish.
6. Pedagogik vaziyatlarni taxlil etish va pedagogik masalalarni echish.
7. O'qituvchi – ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaruvchi rejissyor va aktyor sifatida.
8. O'qituvchi tinglovchilarning bilish faoliyatini boshqarishdagi mahorati.
9. Pedagogik nutq madaniyati: vazifalari, turlari, metodlari va usullari.

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu fan bo'yicha *kurs ishi* tayyorlash o'quv dasturida nazarda tutilmagan

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'qituvchi faoliyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati.
2. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar. O'qituvchilik kasbining ijtimoiy-tarixiy rivoji va mazkur kasbning jamiyatda tutgan o'rni. O'qituvchi faoliyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati.
3. Pedagogik texnika va uning komponentlari, tarkibiy qismlari.
4. Dars davomida mimika, pantomimikadan moxirona foydalanish.
5. Pedagogik odob-axloq va talaba xulq madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari.
6. Pedagog mahoratini tashkil etishning shart sharoitlari.
7. "Pedagog-o'quvchi", "Pedagog-o'quvchilar jamoasi", "Pedagog- raxbariyat", "Pedagog va jamoatchilik", "Pedagog va o'quvchilarning ota-onalari" kabi tizimi doirasida tashkil etilgan muloqot madaniyati.
8. Dars jarayonida pedagogning mahorati.
9. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati.
10. Pedagog faoliyatida pedagogik tajriba to'plash.
11. O'quv jarayonida pedagogik texnologiya.
12. Pedagogik qobiliyat .
13. Darslarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish.
14. Pedagog irodasi, sabr-tokati, maksadga intilishi, o'z hatti-xarakatlarining tug'riligiga nisbatan qat'iy ishonchi, uning o'z-o'zini idora qilish hamda boshqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati, xis-tuyg'ulari, kayfiyatini boshqara olishi.

Pedagogik qobiliyat. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar. O'qituvchilik kasbining ijtimoiy-tarixiy rivoji va mazkur kasbning jamiyatda tutgan o'rni. O'qituvchi faoliyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasida pedagog faoliyati mazmuniga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining umumiy madaniy saviyasi va qobiliyati. Pedagoglik faoliyatining tizimi, kasbiy mahorati haqida tushuncha.

2-mavzu. Pedagogik texnika va uning komponentlari, tarkibiy qismlari

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish uslublari. Pedagogik texnika - o'qituvchining fe'l-atvori, yurish-turishini tashkil etuvchi usullar majmuasi. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. O'qituvchining o'z ruhiy holatini boshqara olish texnikasi. O'qituvchilarning xarakter va individual xususiyatlariga ko'ra toifalarga bo'linishi. Tashabbuskor, ijodkor o'qituvchilar.

Pedagogik texnika vositasi: verbal va noverbal kommunikatsiya. YOsh o'qituvchi faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik xatolar va ularni tuzatish yo'llari. O'qituvchilarning xarakter va individual xususiyatlariga ko'ra toifalarga bo'linishi.

3-mavzu. Pedagogik madaniyat va odob-axloqning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri

Pedagogik odob-axloq va talaba xulq madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari. Pedagogik odob va pedagogik nazokat haqida tushuncha. Pedagogik nazokat – o'qituvchi axloqining ijodiy ko'rinishi. Odob va axloqni shakllantiruvchi asosiy omillar. Talaba yoshlarning odob-axloqni rivojlantirishda o'qituvchi yoki rahbar mahorati. Mustaqil ishlar - talaba xulq madaniyatini shakllantirishning asosiy omili. Pedagogik nazokat tamoyillari va uning vazifasi. Pedagogik nazokat me'yori: burch, pedagogik adolat, vijdon izzat-nafs va pedagogik oriyat. Pedagogik nazokat – o'qituvchi axloqining ijodiy ko'rinishi. Pedagogik nazokatning zarurligi. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyati. O'qituvchining dars jarayonidagi nazokati. Nazokat va taktika. O'qituvchining muloqot odobi. YOqtirish va yoqtirmaslik. Do'stlik, qarindoshlik, xizmatdagi moslik, xamjixat bo'lib ishlash, maslakdoshlik, psixologik muxit, chiqisha olmaslik va o'zaro munosabatdagi qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llari.

O'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilimi va xatti-xarakatlarini baholash, yangi mavzuni tushuntirish, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish, darsdan tashqari va ishdan xolis vaqtlarda pedagogning nazokati va odobi. O'qituvchi nazokati va odobini shakllantirish, rivojlantirish yullari hamda unga erishish shart-sharoitlari.

4-mavzu. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat

O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. O'qituvchi irodasi, sabr-toqati, maqsadga intilishi, uning o'z-o'zini idora qilish hamda boshqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati. Muloqot orqali ta'sir etish. Muloqotga kirishish. Aloqa o'rnatish (kommunikatsiya) tushunchasi, uning mohiyati, pedagogik ta'sir etish usullari. Ishontirishning og'zaki shakllari. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish uslubi. Ishontirishning og'zaki shakllari. Pedagogning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish uslubi: bo'lajak muloqot modulini ishlab chiqish, qisqa muddatli dars yoki tadbirlarni o'tkazish, o'z ustida ishlashga doir mashqlar. Pedagogning pedagogik muloqotga kirishishida uchraydigan pedagogik nizo va kamchiliklar hamda ularning oldini olish yo'llari. SHarq mutafakkirlari muloqot xaqida. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. Empatiya va perseptiv qobiliyatlar. Didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, bilish va anglash qobiliyatlari. Pedagog irodasi, sabr-toqati, maqsadga intilishi, o'z hatti-xarakatlarining to'g'riligiga nisbatan qat'iy ishonchi, uning o'z-o'zini idora qilish xamda boshqalarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati, xis-tuyg'ulari va kayfiyatini boshqara olishi, o'z zimmasiga javobgarlikni ola bilishi, ijodiy xolatni tashkil eta olishi kabi sifatleri.

5-mavzu. Pedagogik ta'sir etish va ishontirish jarayoni

Dars jarayonida pedagogning mahorati. Pedagogning o'quvchilarni bilish (anglash) faoliyatini boshqarishdagi mahorati. Dars mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga yordam beruvchi jixatlar ularning qiziqish va faolliklarini oshirish ko'nikmasini xosil qilish. Pedagog faoliyatida ko'tarinki rux, yaxshi kayfiyat, ishga bo'lgan xohishning etakchi o'rin tutishi va ularni xosil qilish yo'llari. O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkil etishda pedagogning mahorati. O'quvchilarning yakka, guruhli va jamoaviy faoliyatlarini boshqarish. Pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish. Dars hamda darsdan tashqari jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot, unga qo'yiladigan talablar.

6-mavzu. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot madaniyati. Pedagogik konfliktlar haqida tushuncha

Pedagogik mahoratni oshiruvchi yangi usullar va uslublarni ishlab chiqish. Pedagogik nizolarning asosiy sabablari. Pedagogning perseptiv (o'quvchi, talabalarni tushunish) xatolari. Pedagogning o'quvchi-talabalar bilan ish yoki shaxsiy ish yuzasidan bo'ladigan kelishmovchiliklarni va ularni bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari. YOsh pedagoglar faoliyatida odatda yo'l qo'yiladigan xatolar va ularni engish yo'llari. O'zaro uchraydigan nizolarni bartaraf etish

texnologiyasi. O'qituvchining kasbga oid mahoratini shakllantirishda psixologik-pedagogik nazariyalarning ahamiyati. Ilmiy pedagogik ma'lumotlarni qo'llash. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash mahoratni shakllantirishning asosiy sharti sifatida.

7-mavzu. Dars jarayonida pedagogning mahorati. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati

O'qituvchining kasbga oid mahoratini shakllantirishda psixologik-pedagogik nazariyalarning ahamiyati. Ilmiy pedagogik ma'lumotlarni qo'llash. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash mahoratni shakllantirishning asosiy sharti sifatida. Pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyaviy usullarning o'rni va ahamiyati. O'z-o'zini tarbiyalash jarayonida psixologik to'siqlarni engib o'tish yo'llari. O'z-o'zini tarbiyalash jarayonida o'z-o'zini ishontirish metodidan foydalanish. Pedagogik mahoratni takomillashtirish jarayonida pedagogik ijodkorlik va shaxsiy ilmiy pedagogik izlanishni tashkil etish. Ilmiy-pedagogik izlanishlar samarasini baholash mezonlari (yangiligi, muhimligi, nazariy va amaliy ahamiyati). Amaliy faoliyatida ilmiy g'oyalar va pedagogik tajribalardan samarali foydalanish. SHaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish. Tizimni aniqlash. Faoliyatning izchilligi shaxsiy pedagogik faoliyat to'g'ri baho bera olish.

8-mavzu. Pedagogik mahorat va unga erishish yo'llari

Dars hamda darsdan tashqari jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot, unga qo'yiladigan talablar. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar. Pedagogik majburiyat, burch. Pedagogik muloqot. Kommunikativlik. O'qituvchi faoliyati turlari. O'quv pedagogik faoliyat. O'qituvchi va talabaning pedagogik munosabatlari. Munosabatning turlari. O'qituvchining madaniyati. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot jarayonini boshqarish uslublari. Muloqot jarayonida tashabbusni boshqarish. Turli ixtilof nizo, kelishmovchilik hamda g'arazli raqobatlariga yo'l qo'ymaslik va ularning oldini olish yo'llari. "Pedagog-o'quvchi", "Pedagog-o'quvchilar jamoasi", "Pedagog-maktab rahbariyati", "Pedagog va jamoatchilik", "Pedagog va o'quvchilarning ota-onalari" kabi tizimi doirasida tashkil etilgan muloqot madaniyati. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda usullarni maqsadga muvofiq tarzda tanlash. Pedagogik mehnatni tashkil etishda turli usullarning o'rni va ahamiyati.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'qituvchi faoliyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati.
2. Pedagogik texnika. Pedagogning fe'l-atvori, yurish-turishini tashkil etuvchi usullar majmuasi.